

ISSN: 2181-4147

Scientific Journal

Scholar

Volume 1, Issue 25



TOGETHER WE REACH THE GOAL

2023/25

September

ISSN 2181-4147
VOLUME 1, ISSUE 25
SEPTEMBER 2023



<https://researchedu.org/index.php/openscholar>

“SCHOLAR” SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 1, ISSUE 25, SEPTEMBER, 2023

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abdusakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

Editorial Secretary: J. Eshonkulov

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI MOLIYAVIY TA'MINLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Talapova Nargiza Baxriddinovna

Namangan davlat universiteti, tayanch doktoranti

talapovanargiza@mail.ru

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moliyaviy ta'minlash tizimini takomillashtirishning ob'yektiv zaruriyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Mamlakatimizda sohaga doir masalada amalga oshirilayotgan ishlar, maktabgacha ta'lim tashkilotining mamlakat ta'lim tizimidagi o'rni, qamrov darajasi va holati tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** byudjetdan moliyalashtiriluvchi muassasalar, davlat byudjeti mablag'lari, moliyaviy munosabatlar, maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik holati, mehnatiga haq to'lash, xodimlarni moddiy rag'batlantirish jamg'armasi, yagona ijtimoiy to'lov xarajatlari.*

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi¹.

Davlat statistika agenligining ma'lumotlariga ko'ra, har yili O'zbekiston Respublikasida 700 mingdan ortiq bola tug'iladi, bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tushadigan yukni oshiradi. Chunonchi, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tushadigan umumiy ortiqcha yuk respublika bo'yicha 12 foizni tashkil qilsa, uning eng yuqori darajasi Qoraqalpog'iston Respublikasida (21 foiz), Jizzax (35 foiz) va Buxoro (21 foiz) viloyatlarida, eng past darajasi esa Surxondaryo (9 foiz) va Farg'ona (9 foiz) viloyatlarida, shuningdek Toshkent shahrida (6 foiz)

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.

kuzatilmoqda. Umuman, mamlakat bo'yicha 3-7 yoshdagi har 100 nafar bolaga maktabgacha ta'lim muassasalarida 28,1 ta joy to'g'ri keladi.

Konsepsiyada maktabgacha ta'limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar sanab o'tildi:

-maktabgacha yoshdagi bolalarning to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim muassasalari sonining yetarli emasligi;

-qishloq joylarda maktabgacha ta'limning past darajada rivojlanganligi;

-maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik holati lozim darajada emasligi;

-maktabgacha ta'lim muassasalarining malakali pedagog kadrlar bilan jamlanmaganligi;

-maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarining tanqisligi va ular malakasining pastligi;

-ota-onalarning bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobiy jihatlari va foydasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi;

-zamonaviy o'quv-metodik materiallar va ko'rgazmali qurollarning yetishmasligi;

-alohida ehtiyojli bolalar uchun mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining texnik jihozlanishi va uslubiy ta'minoti darajasining pastligi;

-maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va tibbiyot xodimlarining malakasi zamon talablariga to'liq javob bermasligi.

Umuman, byudjetdan moliyalashtiriluvchi muassasalar va ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'inlaridan hisoblanmish maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishning iqtisodiy asoslaridan biri bo'lgan moliyaviy munosabatlarning xususiyatlarini o'rganish, maktabgacha ta'lim muassasalari xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmini yoritish muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, 2022 yil 20 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida: "So'nggi olti yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga yetishi natijasida bugungi kunda 2 millionga yaqin bola bog'chaga bormoqda. Yaqinda Toshkent shahrida o'tkazilgan YUNESKOning Maktabgacha ta'lim bo'yicha Umumjahon anjumanida ham bu islohotlarimiz yuksak e'tirof etildi.

Shu bilan birga, kelgusi besh yilda qamrovni 80 foizga yetkazish uchun 600 ming yangi bog'cha o'rni kerak. Bu – juda katta marra. Shu bois, bog'chalar sonini ko'paytirish, ulardagi ta'lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha besh yillik dastur qabul qilinadi. Bog'cha qamrovini kengaytirish bo'yicha xususiy sektorga qo'shimcha sharoitlar yaratiladi.”¹

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar zamirida Vatanimizni yanada taraqqiy ettirish, yoshlarni har jihatdan barkamol shaxs etib voyaga yetkazish, sohalar uchun yuqori bilimga ega mutaxassislarni tayyorlashdek maqsadlar mujassamdir. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investisiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-20 barobar foyda keltiradi. Inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart. Shu yildagi muhim amaliy qadam sifatida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2021 yilda 65 foizga oshirishga erishildi.

Dastlabki yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimiga doir bir qator islohotlar amalga oshirilmogda. Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'limni uyda berish modelini YUNESKO va Jahon banki bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilishi rejalashtirildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat xususiyatlariga ko'ra quyidagi tiplarga bo'linadi:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr.

- umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim muassasalari;
- ixtisoslashtirilgan (jismoniy va ruhiy rivojlanishida turli nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalar uchun) maktabgacha ta'lim muassasalari;
- sanatoriy tipdagi (zaif, turli yuqumli kasalliklarni boshdan kechirgan, surunkali asoratlarga ega bo'lgan bolalar uchun) maktabgacha ta'lim muassasalari.

2021 yilda maktabgacha ta'lim qamrovi 65 foizga, 2023-yil oxirida esa 75 foizga yetkaziladi. 600 milliard so'm subsidiya berilib, 2 mingta xususiy bog'cha ochiladi; xususiy sektor ulushi 25 foizga yetadi.

6 yoshli bolalarni maktabga majburiy tayyorlash tizimi yo'lga qoo'yildi. 2021 yilda 6 yoshli bolalarning 82 foizi (560 ming nafar) maktabga bepul tayyorlov jalb etildi

Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'limni uyda berish modeli yo'lga qoo'yiladi. YUNESKO va jahon banki bilan hamkorlikda.


1-rasm. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli rejalar¹

Muassasaning qanday tipga mansubligi uning xarajatlarini rejalashtirishda hisobga olinadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyatini byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lar doirasida amalga oshiradi.

Umumiy tipdagi davlat MTTlarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar MTTlarining bo'ysinuviga ko'ra tumanlar va shaharlarning mahalliy byudjetlaridan mablag' bilan ta'minlanadi. Ixtisoslashtirilgan va sanatoriy tipdagi MTTlari, odatda, viloyatlar byudjetlaridan yoki respublika byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Shuningdek, MTTlarning xarajatlarini rejalashtirishda bog'chalarning ishlash rejimi, ya'ni ularda bolalarning bo'lish vaqti (3-4 soatlik, 9 soatlik, 10,5 soatlik, 12 soatlik) inobatga olinadi.

¹<http://www.ziyonet.uz> axborot-ta'lim tarmog'i ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



2-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mol-mulki va moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalari¹

Quyidagilar maktabgacha ta'lim tashkiloti mol-mulkini va moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalari hisoblanadi:

- byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lar;
- boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy ehsonlari hamda maqsadli badallari;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Ma'lumki, yuqorida nomi keltirilgan PF-5198-sonli Prezident Farmoniga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi shakllarini joriy etish belgilangan. Bugungi kunda mamlakatimizda 200 dan ortiq nodavlat ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda². Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

¹Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi 528-son qaroriga 1-ilova) asosida.

² Manba: <http://uzedu.uz>

Qarori bilan davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida tashkil qilinadigan nodavlat MTTlarini davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘zda tutilgan. Xususan, davlat byudjetidan nodavlat MTTlariga davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotining bir nafar tarbiyalanuvchisiga sarflanadigan summaning 50 foizidan yuqori bo‘lmagan miqdorda subsidiyalar ajratilishi belgilangan. Subsidiyalar nodavlat ta‘lim muassasalariga har oyda ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan har bir bola uchun (9 va 10,5 soatlik ish rejimidagi) davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotining bir nafar tarbiyalanuvchisiga sarflanadigan xarajatlar summasining Toshkent shahrida – 30 foizi, Nukus shahri hamda viloyat markazlarida – 40 foizi, qolgan hududlarda 50 foizi miqdorida ajratish ko‘zda tutilganedi¹.

Davlat maktabgacha ta‘lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, ta‘lim sohasini moliyalashtirish va boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator hukumat qarorlari doirasida “pul o‘quvchining ortidan boradi”gan tamoyil bo‘yicha byudjet mablag‘larini taqsimlashning muqobil va oshkora mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish asosida jon boshiga (o‘quvchi, tarbiyalanuvchi soniga) moliyalashtirish tartiblari joriy qilindi.

Ma‘lumki, *jon boshiga (tarbiyalanuvchi, o‘quvchi, talaba soniga) ko‘ra moliyalashtirishda* ta‘lim muassasalari xarajatlarining umumiy hajmi bir nafar tarbiyalanuvchi, o‘quvchi, talaba uchun o‘rnatilgan xarajatlar me‘yori, tarbiyalanuvchi, o‘quvchi, talabalar soni va muassasalarning u yoki bu xususiyatlarini (muassasaning katta-kichikligi, isitish tizimi, alohida toifadagi o‘quvchilarni o‘qitish dasturlari) aks ettiruvchi maxsus koeffitsiyentlarga asoslangan maxsus formula asosida aniqlanadi.

Davlat MTTlari byudjetini aniqlash maqsadida Moliya vazirligi va tarmoq vazirliklari bilan birgalikda har moliyaviy yil uchun “Bir nafar tarbiyalanuvchiga xarajatlarning bazaviy normativlaridan kelib chiqqan holda davlat maktabgacha

¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi “Maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 378-son Qarori, 2-ilova. (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.05.2018 y., 09/18/378/1259-son).

ta'lim muassasalarining byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlanadi.

MTTlarining byudjetini aniqlash bir nafar tarbiyalanuvchilarga xarajatlarning bazaviy normativlari (XBN) va tuzatish koeffitsiyentlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Masalan, 2017 yil uchun davlat MTTlari byudjetini aniqlash tartiblariga ko'ra, xarajatlarning bazaviy normativlariga quyidagilar kiritilgan:

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tarbiyachilar, rahbar va yordamchi xodimlar mehnatiga haq to'lash, xodimlarni moddiy rag'batlantirish jamg'armasi, yagona ijtimoiy to'lov xarajatlari;

MTTni saqlash bilan bog'liq boshqa xarajatlar (kommunal xizmatlar, joriy ta'mirlash, tovar, xom-ashyolar, oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish va boshqa xizmatlar).

Ayrim xarajatlar XBN tarkibiga kiritilmasligi mumkin, masalan, har bir MTTning ehtiyojlaridan kelib chiqib, ajratiladigan ko'mir va suyuq yoqilg'i (mazut) xarid qilish va uni joylarga yetkazish, kommunal xizmat iste'moli hisoblagichlarini xarid qilish va o'rnatish, MTTning kuz-qish mavsumida uzluksiz faoliyatini ta'minlashga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq ta'mirlash ishlari (isitish qozonlarini o'rnatish va almashtirish) kabi xarajatlar tashkilotning yillik smetasiga mahalliy hokimiyatlarning manzilli dasturlariga muvofiq alohida tarzda kiritilgan.

Xarajatlarning bazaviy me'yorlari va tuzatuvchi koeffitsiyentlarni qo'llagan holda aniqlangan MTTning byudjeti rejalashtirilayotgan yilda xarajatlar smetasi bo'yicha unga ajratiladigan mablag'larning umumiy hajmini belgilab beradi. Xarajatlar smetasi, shtatlar jadvali va pedagog xodimlarning tarifikatsiya ro'yxatini tuzish MTTning rahbari va bosh hisobchisi (hisobchisi) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2014 yil 14 noyabrdagi 74-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomga (ro'yxat raqami № 2634, 2014yil 15dekabr) qat'iy rioya etgan holda, xarajatlar bazaviy normativlari asosida hisoblangan mablag'lar doirasida

amalga oshiriladi. Bunda, mablag'larni taqsimlashda quyidagi ketma-ketlikka qat'iy amal qilinadi:

- ish haqi va yagona ijtimoiy to'lov;
- oziq-ovqat xarajatlari;
- kommunal xarajatlar;
- boshqa joriy xarajatlar;
- muassasaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha tadbirlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- byudjetdan to'liq moliyalashtiriluvchi;
- byudjetdan qisman moliyalashtiriluvchi;
- xususiy to'lovlar hisobidan moliyalashtiriluvchi.

Bizning fikrimizcha, qisman byudjetdan moliyalashtiriluvchi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar to'lovlari ochiqligini ta'minlash uchun ushbu muassasada ko'rsatiluvchi qaysi xizmatlar davlat tomonidan, qaysi biri to'lovlar asosida ta'minlanishini belgilash lozim. Buning uchun esa, davlatning vakolatli organlari tomonidan tegishli huquqiy-normativ bilan xizmatlarning mezonlashtirishni joriy etish zarur hisoblanadi.

Shu nuqtai-nazardan, byudjetdan moliyalashtirilishida quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

-maktabgacha ta'lim tashkilotida davlat zimmasidagi xizmatlarning aniq hajmini belgilash;

-umumiy va individual ahamiyatga ega maktabgacha ta'lim xizmatlarini guruhlashtirish;

-davlat ta'lim xizmatlariga yo'naltirilgan byudjet mablag'larining tejamkorligi va samaradorligi ko'rsatkichlari mavjudligi;

-manzilli ahamiyatga ega muassasa xizmatlari hajmi belgilanishi;

-oraliq va yakuniy natija mezonlari hisobga olinishi;

-maktabgacha ta'lim muassasalarida moliyaviy menejment mustaqilligi ta'minlanishi.

Umuman, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishning quyidagi qator usullarini keltirish mumkin:

-maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi muassasalarni smetali moliyalashtirish;

-davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini normativ asosida moliyalashtirish;

-davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini dasturiy moliyalashtirish;

-davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini shartnomali moliyalashtirish.

Alohida qayd etish lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida yuqorida keltirib o'tilgan moliyalashtirish uslubiyatlarining har bir shakliga xos ma'lum jihatlar aks etmoqda. Smetali moliyalashtirish amalda mavjud bo'lib, ushbu uslubiyatdan keng foydalanib kelinmoqda.

Shu boisdan, maktabgacha ta'lim muassasalarida shtatlar jadvali belgilanishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 16 martdagi 50-sonli buyrug'i asosida psixolog lavozimi uchun ajratilgan shtat birligi guruh uchun umuman yetarli bo'lmagan tarzda nazarda tutilgan. Bu bilan, dastlabki (o'rtacha) 90 ta tarbiyalanuvchi uchun psixolog xizmatlari ko'rsatilmaligini anglatadi. Har bir tarbiyalanuvchini sog'lom va barkamol etib shakllantirishda mazkur jihatlariga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, psixolog maktabgacha ta'lim tashkilotida quyidagi faoliyatni amalga oshishi orqali lavozimning muhimligini ta'kidlash mumkin:

-tarbiyalanuvchilarning ulg'ayishi bo'yicha ota-onalar bilan birgalikda ishlash;

-har bir guruhda kuzatuvchi sifatida faoliyat yuritib, tarbiyachilarga o'z tavsiyalarini berish;

-o'quv mashg'ulotlari uchun dasturlar ishlab chiqishda faol ishtirok etish;

-tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi umumiy muhitni kuzatib borish va tegishli tavsiyalar tizimini ishlab chiqish.

Umuman, maktabgacha ta'lim xizmatlarini moliyalashtirishda mezonlarning mavjud bo'lishi byudjet mablag'laridan samarali foydalanishiga hamda ota-onalar to'lovining aniq me'yorlari shakllanishiga zamin yaratadi.

Muallifning fikricha, ota-onalar badal pullarining kiritilishi va belgilanishi ham mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishni rivojlantirishning asosiy dastaklaridan biri bo'lganligi bois, avvalo, ularning miqdorlari belgilanishini tahlil qilish lozim. Bugungi kunda badal pullari 5 va 6 kunlik maktabgacha ta'lim muassasalari kesimida, 5 hudud darajasida, shunga mos vaqt bo'yicha belgilanadi.

Badal pullari miqdorining pasaytirilish holati asosan ko'pchilik hududlarni qamrab oluvchi boshqa hududlar pozitsiyasida amalga oshirilganligini qamrov darajasining aynan shu hududlarda pastligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, badal puli miqdorini belgilash maktabgacha ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning qo'shimcha manbasi bo'libgina qolmay, iqtisodiy asoslarga ham ega bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Umuman, tadqiqotimizda bo'yicha quyidagi hulosalar shakllantirildi:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy qismini davlat maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qiladi.
2. Muassasalar va ulardagi mavjud joylar soni 2010 yildan boshlab keskin kamayish tendensiyasiga ega. Buning asosiy sababi moliyalashtirishdagi o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Muassasalar va ulardagi mavjud joylar umumiy soni kamaygan bo'lsada, geografik jihatdan qishloq joylarda kamayib, shahar joylarda ortib borgan.
3. Maktabgacha ta'lim muassasalari hamda ulardagi joylar soni o'rtasidagi korrelyasiya 0,91ga teng ya'ni, bog'liqlik juda kuchli va sezilarli.
4. 2018 yilga kelib, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar soni ulardagi joylar sonidan ortib ketgan. Bu shahar va qishloq hududlariga birdek ta'luqli.
5. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar soni ulardagi joylar umumiy sonidan ortib ketgan bo'lsada, umumiy qamrov darajasi respublika bo'yicha 2017 yilda 25 % bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022 yil 20 dekabr
3. Davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to‘g‘risida Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi 528-son qaroriga 1-ilova) asosida.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 378-son Qarori, 2-ilova. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.05.2018 y., 09/18/378/1259-son).
5. Abduraxmanov K.X. i dr. Sovremennyy menedjment i reformirovaniye sistemy obrazovaniya v Uzbekistane. Uchebnoye posobiye. – T.: Izdatelstvo REA im. G.V. Plexanova, 2005. – 240 s
6. Abdullayev A.F. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. T.:2020.-13-b.
7. <http://uzedu.uz>
8. <http://www.ziyonet.uz>

QOVUN NAVLARINING VEGETATSIYA DAVRI DAVOMIYLIGI VA HOSILDORLIK KO'RSATKICHLARI

Jo'rayeva Dilnoza Xudoyberdi qizi

AQXAI magistr

Jo'rayev Jasurbek Murodjon o'g'li

AQXAI magistr

Raximov Azizbek Dilmuratovich

AQXAI q.x.f.f.d. dotsent

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qovun navlarining vegetatsiya davri davomiyligi jumaladan, ekish muddati, unib chiqishi, pishib yetilishi, asosiy poya uzunligi va hosildorlik ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qovun, urug', nav, poya, meva, hosildorlik, mahsuldorlik.

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация о продолжительности вегетационного периода сортов дыни, включая сроки посадки, всхожесть, созревание, длину основного стебля и показатели урожайности.

Ключевые слова: дыня, семя, сорт, стебель, плод, урожай, урожайность.

KIRISH: Respublikamizda asrlar davomida polizchilik keng rivojlangan mintaqa hisoblanib, so'nggi yillarda bu sohaga yangi texnologiyalar joriy qilish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bundan maqsad, mavjud bo'lgan ekin maydonlarini kengaytirmasdan, yangi texnologiya va mexanizatsiyalarni joriy etib, yuqori va sifatli mahsulot yetishtirishdir.

O‘zbekistonda asrlar davomida qovun va tarvuzlarning dunyoda tengi yo‘q navlari yaratilib, qovunchilik makonlari shakllangan.

Soha mutaxassislari oldida O‘zbekistonda poliz ekinlarining potensial hosilini yanada oshirish, aholini poliz mevalari bilan mumkin qadar uzoqroq vaqt ta‘minlash, buning uchun esa ertapishar va uzoq vaqt saqlanuvchan navlar yaratishdek muhim masala turibdi. So‘nggi yillarda bir qancha yangi navlar yaratildi, ularning agrotexnikasi ishlab chiqildi, fan sohasida erishilgan yutuqlarni amalda qo‘llash natijasida hosildorlik birmuncha ko‘tarildi. Shunday bo‘lsada, O‘zbekistonda ko‘p sifatli navlar ekilmay, yo‘qolib ketgan. Shularni tiklash va joriy etish hozirgi fan mutaxassislari oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bu borada Samarqand Qishloq xo‘jaligi instituti hamda O‘zSPE va KITI olimlari tomonidan o‘tkazilgan seleksiya ishlari natijasida qovun-tarvuzning tezpishar navlari yaratilgan va “Dehqon” navi 2009 yildan Davlat reestriga kiritildi.

Poliz ekinlari mevalari ko‘p mamlakatlarda aholining eng sevimli oziq-ovqat turlaridan hisoblanadi. Qovun mevalarining iste‘mol qilinishi sabablari -100 gr qovun tarkibida 0,6 g proteyin, 0,3 g yog‘, 7,4 g uglevod mavjud bo‘lib 33 kkal energiyaga ega.(internet tarmog‘ www.msu.com) .

Qovun –*Melo Adans* turkumiga kiradi. Bu tur 40 dan ortiq turlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda yetishtiriladigan qovun navlarida besh xil gul bo‘ladi. 1-funksional erkak gullar, 2-funksional chin erkak gullar, 3-funksional urg‘ochi gullar, 4-funksional chin urg‘ochi gullar, 5-germofradit gullar. Pastdan yuqoriga qarab erkak va germofradit gullar ochilib boradi. Mevasi qovoq meva, urug‘lari endosperimsiz, yirik murtakli va ikkita yassi pallali bo‘ladi. Qovunda gulining rivojlanib borish muddati 25-30 kunni tashkil etadi. Jinsiy jixatdan olganda qovunlar poligam o‘simlik hisoblanadi. Chin erkak gullar bilan funksional erkak gullar 8 tadan iborat bo‘lgan to‘pgullar hosil qiladi, hamma tartibdagi poyalarda paydo bo‘ladi. Funksional urg‘ochi va chin urg‘ochi gullar bilan ikki jinsli ya‘ni germofradit gullar yakka-yakka bo‘lib ikkinchi va uchinchi tartib poyalarda tug‘iladi. Chin erkak gullar

bilan funksional erkak gullar 80-150 ta, chin urg'ochi va funksional urg'ochi gullar 80-150 ta ikki jinsli gullar bulardan 7 barobarga kam bo'radi.

NATIJAR: Bizning olib borgan dala tajribalarimizda sinalgan navlar urug'ini unib chiqishi – maysalar paydo bo'lishi uchun sug'orish tartibotini ahamiyati bo'lmadi.

Chunki nihollarni undirib olish uchun tajriba dalasi 2023 yil 28 aprel va 2-may kunlari sug'orildi. Natijada barcha navlar urug'i bir muddatda 5 kunda unib chiqdi (1-jadval).

1-jadval

Qovun o'simligining vegetatsiya davrining davomiyligi

Qovun navlari	Ekish muddati	Unib chiqishi, kun	Pishib yetilishi, kun	Asosiy poya uzunligi, sm
Galia	25.04. 2022 yil	5	91	295
Obi novvot	25.04. 2022 yil	5	96	325
Aravakash	25.04. 2022 yil	5	100	210

Qovun ekini maysalari paydo bo'lgandan to birinchi mevasi pishishi bo'yicha, vegetatsiya davri quyidagilarga bo'linadi: ertapishar 55-80 kun; o'rtapishar 81-110 kun va kechpishar 110 kundan narisi.

Ushbu klassifikatsiyaga binoan sinalgan navlar ichida 55-80 kunlik ertapishar navlar bo'lmagan. Uchchala nav (81-110 kun) o'rtapisharligi kuzatildi.

Jumladan, Galia 91 kunda, Obi novvot 96 kunda, Aravakash 100 kunda pishib yetildi. Asosiy poya uzunligi Galia navida 295 sm ni, Obi novvot navida 325 sm ni, Aravakash navida esa 210 sm uzunlikda bo'ldi.

XULOSA: Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki vegetatsiya davrini davomiyligi bo'yicha xorijiy Galia qovun navi mahalliy Obi novvot va Aravakash qovun navlariga nisbatan 5-9 kunga erta pishib yetilishi hamda asosiy poya uzunligi bo'yicha Obi novvot navidan 30 sm ga kalta bo'lib Aravakash qovun navidan 85 sm uzun bo'lishligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ostonaqulov.T.E. Meva-poliz va poliz mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi (leksiyalar kursi). Samarqand, 2006.
2. Ostonaqulov.T.E. va boshqalar.-Samarqand qovunlari. Samarqand 2008 yil.
3. <http://www.agro.uz/uzb/iqtisodiyot/>
4. http://sibsadovod.ru/arbuz_stolovyi.html

**TARVUZ URUG‘LARINI EKISHGA TAYYORLASHDA, KIMYOVIY DORI
VOSITALAR BILAN ISHLOV BERISH HAMDA YETISHTIRISH
AGROTEXNIKASI**

Jo‘rayev Jasurbek Murodjon o‘g‘li

AQXAI magistri

Jo‘rayeva Dilnoza Xudoyberdi qizi

AQXAI magistri

Raximov Azizbek Dilmuratovich

AQXAI q.x.f.f.d. dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarvuz urug‘larini ekishga tayyorlashda, kimyoviy dori vositalar bilan ishlov berish hamda yetishtirish agrotexnikasi haqida ma‘lumotlar bilan tanishishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: tarvuz, urug‘, nav, poya, meva, hosildorlik, mahsuldorlik

АННОТАЦИЯ

В этой статье вы можете ознакомиться с информацией о подготовке семян арбуза к посадке, обработке химическими препаратами, а также агротехнике выращивания.

Ключевые слова: арбуз, семя, сорт, стебель, плод, урожай, урожайность.

KIRISH: Tarvuz o‘zida juda ko‘p vitamin va minerallarni saqlab, quyidagilarda yordam beradi: Tarvuz moddalar almashinuvini normallashtirishda yordam beradi, buyrak va jigarni tozalab, ularning faoliyatini yaxshilaydi, organizmni mustahkamlab, immunitetni ko‘taradi, zararli xolesterindan xalos etadi, ichaklar faoliyatini

yaxshilaydi, zaharlanish yoki antibiotiklar qabul qilgandan so'ng, tarvuz iste'mol qilinsa, shunda u zaharli moddalarni organizmdan chiqarishga ko'maklashadi.

Tarvuz o'simligini kasalliklarga chalinishini oldini olish maqsadida urug'larni ekish oldidan o'simlikka biogen ta'sir etuvchi moddalarning suvli eritmasida ivitish-metilen ko'ki (метиленовый синий) -12 litr suvga 4 gramm modda hisobida; salitsil kislotasi -1 litr suvga 0,1-0,5 mg va mikroelementlar eritmasida ivitish (0,1-0,5 % li bor kislotasida); 0,02-0,05 % li marganets sulfat tuzida; 0,005-0,01 % li kobalt sulfat tuzi yoki 0,02-0,04 % li alyumin-molibdat nordon tuzi eritmasida ivitish ularning o'sishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Poliz ekinlari urug'lari tuproqning 8-10 sm chuqurlikdagi harorati +12+15° C darajaga yetganida ekishga kirishiladi. Bunday sharoitlar O'zbekistonning janubida aprel oyi boshida, shimolda esa aprel oyi oxirida sodir bo'ladi. Ekish muddatlari mahsulot pishib yetilishi vaqtiga ham bog'liq, binobarin, tarvuz va tarvuzning qishda saqlanadigan kechki navlari may oyi oxiri iyun oyi boshlarida ekiladi, bunda hosilning ko'p qismi sentyabr-oktyabr oyida yetiladi (1-jadval).

Ekish chuqurligi urug'larning mayda-yirikligiga, ekish muddatlariga, tuproqning namligi va tarkibiy xususiyatlariga bog'liqdir. Odatda tarvuz urug'lari 4-6 sm chuqurlikka ekiladi.

1-jadval

O'zbekistonda tuproq-iqlim sharoiti va navlar xususiyatiga ko'ra poliz ekinlari ekish muddatlari

Tarvuz (<i>Citrullas vulgaris</i>)			
Ekish muddatlari			
Navlar	Janubiy hudud	Markaziy hudud	Shimoliy hudud
<i>Ertapishar</i>	1-10 aprel	1-30 aprel	20-30 aprel
<i>O'rtapishar</i>	10-20 aprel	1-15 may	1-15 may
<i>Kechpishar</i>	1-10 iyun	15-30 may	20-30 may

Poliz ekinlarini ekish normalari (me'yorlari) ekish usuli, bir uyaga ekiladigan urug' miqdori va urug'lar katta-kichikligiga bog'liq. Tarvuz urug'lari bir uyaga 4-5 ta, 1 ga maydonga 3-4 kg tarvuz urug'i ekiladi.

O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida tarvuz o'simligining oziqlanish maydoni 1-2 m². Joylashtirish usullari (sxemalari) o'simliklarning geklardagi kerakli sonini ta'minlabgina qolmay, balki poliz ekinlarini yetishtirish va hosilini yig'ish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni maksimal mexanizatsiyalashtirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Buning uchun o'simlikning qator oralari kengligi traktor va mashinalarning yurishi uchun qulay bo'lishi kerak. Mamlakatimizda ishlatiladigan traktorlarning oldingi va orqa g'ildiraklarining oralig'i, ya'ni kolleyasi 120; 140 va 180 sm, shuni hisobga olgan holda o'simliklarni joylashtirish usullarini tanlash zarur.

O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida ariqlar orqali sug'orishda poliz ekinlarini lentasimon qo'shqatorlab ekish usuli qo'llaniladi. Bunday usulda tor qator oralari (0,7-0,9 m) va keng pushtalar (2,1-3,6 m) navbatma-navbat joylashadi. Tor qator oralaridan sug'oriladigan egatlar olinadi, pushtalarda o'simlik palaklari joylanadi. 1 geklardagi o'simliklar soni tegishli ravishda tarvuz 8-10 ming dona tarvuz ekiladi.

O'zbekiston sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti olimlari qovun va tarvuzni quyidagi qo'sh qatorli lentasimon usullarda joylashtirishni tavsiya etadilar 270-290 sm/2x70. Bunda 1 geklardagi o'simliklar soni 7,9 ming dona. Ushbu ekish usullari (sxemalari) qo'llanilganida 270-290 sm keng qator oralari o'rtasidan texnologik egat olinadi, bunday egat poliz ekinlarining qator oralariga ishlov berish mahalida to'rt g'ildirakli traktorlarini (T-28X4M, barcha rusumdagi «Belarus», TTZ-100 QX, va b.) hosilni yig'ish paytida esa 2 PTS-4-793A traktor pritsepini ishlatishga imkon beradi. Urug'lar SBU-2-4A poliz seyalkasining ikkita ekish agregati yordamida ekiladi. Poliz ekinlarini parvarish qilish tuproqni yumshatish, o'simliklarni yaganalash, ekinni oziqlantirish, chopiq qilish, sug'orish, palaklarini to'g'rilash, begona o'tlar va zararkunandalarga qarshi kurashni o'z ichiga oladi.

Poliz ekinlari nanga o'rtacha talabchandir. Ular yer sathi quruq bo'lgan va o'simlik ildizlari joylashgan tuproqning namligi yetarli bo'lgan joylarda yaxshi o'sib, rivojlanadi. Tuproqning o'ta nam bo'lishi o'simliklarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA: O'zbekiston sharoitida poliz ekinlari ko'pincha sug'orib yetishtiriladi. Buning uchun suv oqadigan ariqlar urug' ekish bilan bir vaqtda 22-24 sm chuqurlikda qirqiladi. Ariqlarni bunday chuqurlikda olish o'simlik ildizi atrofida namni ko'proq to'planishiga imkoniyat yaratadi. Natijada o'simlik yaxshi rivojlanib, palagi kasalliklardan saqlanadi. Shuning uchun, poliz ekinlarini o'suv davrida o'simlik ildizi joylashgan tuproq qatlami doimo nam, o'simlik palagi yoyilib yotadigan qatlami quruq bo'lishi kerak. Tuproq namligining yuqori bo'lishi o'simliklarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Poliz ekinlari uchun tuproq namligi quyidagicha bo'lishi kerak: yozgi eti qattiq tarvuzlar uchun tuproqning sug'orishdan oldingi namligi tuproq dala nam sig'imi bo'yicha 60-65-60 %, yoki 65-70-75 bo'lishi kerak. Tuproqning bunday namligiga gektariga 600-700 m³ miqdorida 3-4 marta sug'orish bilan erishiladi. Bu sug'orish sxemasi 0-2-1 yoki 1-2-1 hisobida belgilanib, gullash fazasidan oldin-0, qiyg'os gullash fazasida-2, meva tugish davrida-1 marotaba sug'orish demakdir. Tuproqni 60 sm chuqurligigacha nam borishi uchun yuqorida aytilgan normadagi suv bilan tekis joylarda 2 kun, nishab joylarda esa 3 kun sug'orish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uz.blabto.com/4353-15-best-new-varieties-and-hybrids-of-watermelons.html>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:Tarvuz_navlari
3. <https://agronet.uz/tarvuz-navlari/>
4. <https://agro-olam.uz/tarvuz-navlari-haqida-batafsil-malumot/>

AXBOROT XURUJLARI, “OMMAVIY MADANIYAT” VA BOSHQA YOT MAFKURALARGA QARSHI IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY MENTALITETNING O‘RNI

Maxmudov L.Yu.

Toshkent tibbiyot akademiyasi o‘qituvchisi

ANNOTATION

It is possible that globalization is a natural fruit of the development of the individual and, denying their positive aspects, causes a number of contradictions and contradictions in the modern world. At the same time, it is important, first of all, to preserve the spiritual and moral values that make up culture and its main root.

АННОТАЦИЯ

Не исключено, что глобализация является естественным плодом развития личности и, отрицая их положительные аспекты, вызывает ряд противоречий и противоречий в современном мире. При этом актуально, прежде всего, сохранение духовно-нравственных ценностей, составляющих культуру и ее главный корень.

O‘zbekistonda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab xalqimizning asrlar davomida intilib kelgan orzu-maqсадlari va zamon talablarini, dunyoviy taraqqiyot mezonlarini hisobga olgan holda, jamiyat hayotida ana shu ikki omilning uyg‘un tarzda rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratildi. Mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini, iqtisodiy-ijtimoiy yangilanish jarayonlarini aynan shu asosda tashkil etishga ustuvor ahamiyat berildi. Shu o‘rinda ba‘zi bir ilmiy doira vakillarining jamiyatda oldin moddiy hayotni, keyin ma‘naviy masalalarni o‘ylash kerak, degan mazmundagi fikrlari mutlaqo xato bo‘lib, yangi jamiyat, yangi hayot qurish

jarayonida faqat zarar yetkazishi mumkinligini bugun hayotning o‘zi har qadamda tasdiqlab bermoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bozor munosabatlariga o‘tish davrida jamiyat a‘zolarining o‘z salohiyati va iste’dodini ro‘yobga chiqarishi uchun ularga, birinchi galda, teng imkoniyatlar va erkinlik muhitini, ham qonuniy, ham amaliy shart-sharoitlarni yaratib berishga zo‘r berildi. Oddiy qilib aytganda, kuch-g‘ayrat bilan birga, bilim va tajribasi, aql-idroki, kasb malakasi yetarli bo‘lgan, qonunlarni, o‘z haq-huquqlari va majburiyatlarini yaxshi bilgan odamgina tadbirkorlik yoki fermerlik bilan shug‘ullanishi, o‘z xususiy ishini oqilona va samarali tashkil etishi mumkin. Ko‘rinib turibdiki, moddiy va ma‘naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro bog‘lanib, bir-birini to‘ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o‘z hayotini aynan ana shunday uzviy bog‘liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi. Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ma‘naviy poklanish, ma‘naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg‘un ravishda rivojlanib borishi doimo davlatimiz va jamiyatimizning e‘tibor markazida. Aynan moddiy va ma‘naviyat uyg‘unligi tufayli tadbirkorlar, mulkdorlar o‘zini va oilasini boqishga, shu bilan birga, orttirgan daromadi hisobidan o‘z yaqinlari hamda muhtoj insonlarga beg‘araz yordam ko‘rsatish, el-yurt uchun xizmat qiladigan maktab, shifoxona, madaniyat va sport maskanlari barpo etish, kerak bo‘lsa, davlat va jamiyat zimmasidagi ko‘pgina vazifalarni amalga oshirishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Barcha jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma‘naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan bog‘liqdir. G‘arbning buyuk faylasufi Alber Shveyster shunday degan edi:” Voqelikni shakllantiradigan kuchlar ichida birinchisi –ma‘naviyat va axloq.Qolgan barchasi ozmi – ko‘pmi ikkinchi darajali”,¹ Insoniyat tarixiga, xususan, bugungi kunda globallashib borayotgan dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarga diqqat bilan nazar tashlansa, bu gaplarga

¹ <http://otvety.google.ru/otvety/thread?tid=0b64f779f9c2a285>

qoshilmaslikning iloji yo‘q. Globallashuv kishilik tamadduni taraqqiyotining tabiiy mevasi ekanligi va ularning ijobiy jihatlarini inkor etmagan holda hozirgi dunyoda bir qator ixtilof va ziddiyatlarni keltirib chiqarayotgan jihatlarni ham e‘tibordan qochirib bo‘lmaydi. Bu haqda fikr yuritayotganda, avvalo, madaniyat va uning bosh tomirini tashkil etgan ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, axloqodob masalalarini ma‘naviy qadriyatlar orqali yuksaltirish bugungi davr talabidir. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev aytganlaridek “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyatga tayanamiz.”¹ Kishilarning ma‘naviy faoliyati mahsuli Ma‘naviy qadriyatlar hissoblanadi. bilishning murakkab jarayoni natijasida yuzaga kelgan bilim, qarash, malakalar samarasidir. Ma‘naviy qadriyatlarni yaratishdan ko‘zlangan bosh ma‘no – bu moddiylikni ideallikka “bo‘ysundirish”. Milliy va umuminsoniy ma‘naviyat va qadriyatlardan to‘la bahramand bo‘lmagan, ona tilini bilmagan jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga ongli tarzda hissa qo‘shmagan inson ma‘naviy qashshoqdir. Mustaqil respublikamiz istiqbolini belgilovchi har bir fuqoroning o‘z burchi va majburiyati mohiyatida ma‘naviyat va axloqiylikni qayta tiklash; o‘zbek xalqi asrlar mobaynida yaratgan madaniy boyliklarni, noyob tarixiy obidalarni avaylab saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish tadbirlarini ko‘rish; qadimiy va zamoniviy xalq qadriyatlarini, adabiyot va san‘atni bilish va rivojlantirish; respublikada yashovchi boshqa xalqlar madaniyatiga, tiliga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish; ma‘naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish; oilani milliy qadriyatlar asosida mustahkamlash; ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida umuinsoniy va milliy qadriyatlarning mazmuni va mohiyatini chuqur o‘rganishga

¹ <http://www.dissercat.com/content/kulturnaya-identifikatsiya-v-usloviyakh-globalizatsii-sluchai-sotsialnykh-setei>

erishish kabi shartlarni amalga oshirish yotadi. Bir soʻz bilan aytganda, insoniyat paydo boʻlibdiki, hamisha odamiylik qiyofasini, feʼl-atvorda oʻziga yarashadigan xatti-harakatlarini, u yoki bu fazilatlarini mujassamlashtirishga intilgan. Hozirgi zamon jamiyatini koʻproq postmodern jamiyati deb atash keng tarqalgan. Uning asosiy belgilari: ishlab chiqarishda yuksak texnologiyalar qoʻllaniladi, axborot texnologiyalari nafaqat ommaviy kommunikasiya sohasiga, shuningdek jamiyat hayotining barcha sohalariga, hatto ishlab chiqarishga ham kirib keldi, softver (elektron aloqa xizmatlari) sohasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning uzviy tarmogʻiga aylandi, jahon taraqqiyotida globallashtirish tendensiyasi vujudga keldi, ommaviy madaniyat keng tarqalgan ijtimoiy hodisaga aylandi, inson ongi, tafakkuri va xulq-atvori, jamiyat mentaliteti ancha oʻzgardi. Natijada baʼzi bir mumtoz qadriyatlar deformasiyaga uchradi, ular oʻrnini esa ayrim hollarda soxta qadriyatlar egallamoqda. Tanlab tizimlashtirilgan axborotlar xuruji yordamida turli RR (piar)-kompaniyalar orqali omma ongi boshqarilmoqda. Internet tarmogʻi, xorijiy telekanallar, uyali aloqa tizimi va hokazo vositalar orqali tarqatilyotgan turli gʻayri milliy gʻoya va qarashlar yoshlar ongiga jiddiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq oʻnlab yangi gazeta va jurnallar, xususiy radiostantsiyalar, telestudiyalar tashkil topdi va shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Mazkur nashrlarning gʻoyaviy yoʻnalishi, eʼlon qilinayotgan maqolalardagi maʼnaviyat masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida yuzaga qalqib chiqmoqda. Nashr muassisi va bosh muharrir bevosita eʼtibor qilishi shart boʻlgan bu muammolar millat peshvolari — ziyolilarni oʻylantirishi kerak. Toki, biz shu xalqning farzandi ekanmiz, hech birimizga uning axloqiy qadriyatlarini, qalb kechinmalarini ermak qilish huquqi berilmagan. Qator xususiy nashrlarda toʻxtovsiz, taʼbir joiz boʻlsa, kim oʻzarga eʼlon qilinayotgan «ijod» namunalarini millat maʼnaviyatiga tajovuz, deb tushunish mumkin. Oʻzbek mentalitetining yorqin ifodasi boʻlgan uyat, or-nomus, andisha, gʻururni («Er yigitning uyalgani — oʻlgani», «Uyat— oʻlimdan qattiq» xalq maqollari) arzon pullayotgan, toptayotgan hamkasblarimiz zimmasida istiqloq masʼuliyati ham bor.

